

**TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BIZNES-REJA TUZISH  
ISHLARINI TASHKIL ETISH**

**Nosirova Gulchexra Shavkatjonovna**

Yangiyer pedagogika kolleji Maxsus fanlar kafedrasи katta o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatida biznes-reja tuzish ishlarini tashkil etish haqida so`z boradi.

**Annotation:** This article talks about the organization of business planning in business activities

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об организации бизнес-планирования в хозяйственной деятельности.

**Kalit so`zlar:** korxona, tadbirkor, biznes reja, daromad, foyda

Tadbirkor faoliyati faqat tadbirkorlikning huquqiy va tashkiliy asoslariga bog'liq bo'lmasdan, u insonlar, o'zining qo'l ostida xizmat qiluvchi mutaxassislar va ishchilar, ayniqsa, chet ellik hamkasblari – biznesmenlar doirasida umumaxloqiy me'yordarga rioxaya qilishi muhim rol bajarishi mumkin. Ishdagi muvaffaqiyatning yarmidan ko'proqi uning odobiga, madaniyatiga, dunyoharashiga, ishbilarmonlik qoidalarini qay darajada bilishiga bevosita bog'liq holda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Tadbirkor – ishchanlik va yaratuvchanlikni talab qiluvchi kasb hisoblanadi. Bu kasb tinimsiz faoliyatni, ishlab, pul topishni talab qiladi. Bu uning obro'-e'tibori manbaidir. Tadbirkor o'z mehnatining ahamiyatini anglay oladigan shaxs hisoblanadi. U o'z hamkorlaridan ishga mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi va uni qo'llab-quvvatlaydi. Xususiy xo'jalik faoliyati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga olib keladi va tabirkorga o'ziga xos majburiyatlarni bajarishni talab qiladi. Tadbirkor, davlat va uning qonunlarini to'g'ridan-to'g'ri hurmat qilishi va ularga amal qilib borishi kerak. O'z navbatida, u bunday yondashuvni davlatdan ham talab qilishi lozim. Tadbirkor mijoz manfaatlari, jamiyat, davlat va atrof-muhiti uchun zarar keltirmaslikka, uning qonun qoidalariga rioxaya etishga majburdir. Prezidentimiz tomonidan ma'ruzada ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar etkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini berib boradi. Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikatsiya qilish, ularni import qiluvchi mamlakatlar geografiyasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir guruhining iqtisodiyotida

muammolar ro'y berganda ham eksport hajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi. O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobjiy siljishlarga erishish, uning hajmini barqaror o'stirish imkonini berib bormoqda. Respublikamiz eksporti va importining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish bir qator vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, yoki ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan mahsulotlarga bo'lgan talabni o'rganish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatib boradi.

Jahon bozorlarida korxonalarimiz mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

- eksport qiluvchi korxonalarga mahsulot tayyorlash va sotish xarajatlarini kamaytirishda ko'maklashish;
- ularni tashqi bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to'g'risida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish;
- transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish;
- yangi transport yo'laklarini ochish orqali transport xarajatlarini kamaytirish.

Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining faravon turmush darajasi, qolaversa mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog'liq holda amalga oshirilib boradi. Bu holat esa korxonalarning iqtisodiy erkinligini rag'batlantirish darajasining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarida ham o'zgarishlar bo'lishi kuzatiladi. Bu holat ham kichik tadbirkorlikning rivojlanishi asosida ro'y berdi. Hududlarning mashinasozlik va metallga ishlov berish, engil sanoat, ayniqsa, trikotaj, tikuvchilik buyumlari tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalarida kichik biznesning o'rni va ulushi mutlaqo etarli darajada emas. Vaqolanki barcha sohada ishlab chiqarish faolligi tenglashsa ijobjiy natijalarga erishamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

Abdullayeva Sh.Z.. Pul muomalasi va kredit. O'quv qo'llanma. T., «ILM ZIYO», 2013.

Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «FAN» nashriyot davlat korxonasi, 2019.

Abduraxmanova G.Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. Monografiya. –T.: "Iqtisodiyot", 2014.